

A.XODZKO TO‘PLAMIDAGI “GO‘RO‘G‘LI VA BOLIBEK” DOSTONI, EPIK QAHRAMONLIK VA IJTIMOY ETIKANING INGLIZCHA BADIY TALQINI

Sariyeva Rahimabonu,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada A. Xodzkoning 1842-yilgi tarjima qilib nashr etgan to‘plamidagi “Go‘ro‘g‘li va Bolibek” dostoni “Alp” (erkin qahramon) va “Bek” (vassal ierarxiya) konsepsiyalari asosida tadqiq etiladi. Go‘ro‘g‘li va Bolibek to‘qnashuvi shunchaki jang emas, balki ikki xil ijtimoiy etika erkinlik va saroy tartiboti kurashi sifatida talqin qilingan. Muallif Xodzko qo‘llagan “ritmik proza” uslubi turkiy jangnoma an‘anasini G‘arb ritsarlik odobi bilan uyg‘unlashtira olganini ilmiy asoslaydi.

Kalit so‘zlar: A.Xodzko, Go‘ro‘g‘li, Bolibek, Alp va Bek, ritmik proza, ritsarlik etikasi, madaniy transfer.

Аннотация. В статье дастан “Кёроглу и Болы-бек” из сборника А. Ходзько (1842) впервые исследуется сквозь призму концепций “Алп” (героическая вольность) и “Бек” (вассальная иерархия). Столкновение Кёроглу и Болы-бека трактуется не просто как битва, а как борьба двух социальных этик: свободы и дворцового порядка. Автор научно обосновывает, что стиль “ритмической прозы” Ходзько синтезирует тюркскую традицию джангنامه с западным рыцарским кодексом.

Ключевые слова: А.Ходзько, Кёроглу, Болы-бек, Алп и Бек, ритмическая проза, рыцарская этика, культурный трансфер.

Abstract. This article analyzes the dastan “Koroghlu and Bolly-beg” from A. Chodzko’s 1842 collection, exploring it through the concepts of the “Alp” (heroic freedom) versus the “Beg” (vassal hierarchy). The confrontation between Koroghlu and Bolly-beg is interpreted not merely as a combat, but as a clash of two social ethics liberty and courtly order. The author demonstrates how Chodzko’s “rhythmic prose” effectively harmonizes the Turkic jangnama tradition with the Western European chivalric code.

Keywords: A. Chodzko, Koroghlu, Bolly-beg, Alp and Beg, rhythmic prose, chivalric ethics, cultural transfer.

Kirish. XIX asrning birinchi yarmi jahon sharqshunosligi va madaniy muloqoti tarixida alohida bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda turkiy xalqlarning boy epik merosi G‘arbiy Yevropa muhitiga kirib bora boshladi. Bu borada Aleksandr Xodzko tomonidan 1842-yilda Londonda nashr etilgan “Specimens of the Popular Poetry of Persia” (Fors xalq she‘riyatidan namunalar) to‘plami muhim ahamiyat kasb etadi [1.435]. To‘plam tarkibidagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi ingliz kitobxonlari uchun nafaqat yangi bir geografik hududni, balki Sharqning betakror qahramonlik dunyosini kashf etib berdi. Bugungi kunda global madaniyatlararo muloqot jarayonida ushbu ilk tarjimalarning badiiy-estetik mohiyatini o‘rganish, milliy qadriyatlarning o‘zga tillarda aks etish qonuniyatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda Aleksandr Xodzko tomonidan tuzilgan “Specimens of the Popular Poetry of Persia” to‘plami asosiy manba sifatida tahlil qilinib, undagi “Go‘ro‘g‘li va Bolibek” dostoni qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganildi. Shuningdek, Pertev Naili Boratav, Viktor Zhirmunsky hamda Karl Reichl kabi olimlarning turkiy epik an‘analari, “Alp” konsepsiyasi va og‘zaki ijod poetikasiga oid ilmiy

qarashlari nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Bundan tashqari, G'arb ritsarlik etikasi va folklor funksiyalariga doir Erving Goffman va William Bascom tadqiqotlari orqali dostonning ijtimoiy-axloqiy talqini chuqurlashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda germenevtik va qiyosiy-tipologik yondashuvlar asosida matnning badiiy, semantik hamda madaniy qatlamlari tahlil qilindi. Shuningdek, lingvokulturologik metod yordamida turkiy epik tushunchalarning ingliz tilidagi tarjimada qanday transformatsiyaga uchrashi va madaniy transfer jarayonlari aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Turkiy eposni ingliz tiliga o'girishda tarjimon nafaqat til to'sig'iga, balki ulkan madaniy tafovutga duch kelgan. Sharqona "Alp" (o'z irodasi bilan harakat qiluvchi, erkin qahramon) va "Bek" (saroy ierarxiyasi va vassal sadoqatiga bog'langan hukmdor) tushunchalari G'arb kitobxonlari uchun turlicha ma'no yukiga ega edi [4.124]. Xodzko uchun asosiy muammo – Go'ro'g'lining tog'lardagi hech kimga bo'ysunmasligini va uning raqibi Bolibekning davlat tizimi ichidagi mavqeini inglizcha "ritsarlik etikasi" (Chivalry) tushunchalari orqali qayta yaratishdan iborat edi. Aleksandr Xodzko talqinidagi "Go'ro'g'li va Bolibek" dostonini shunchaki jismoniy jang tasviri emas, balki ikki xil ijtimoiy dunyoqarash to'qnashuvi sifatida ochib berish muhim. Go'ro'g'li timsolidagi "tog'lar erkinligi" (shaxsiy erk) va Bolibek obrazidagi "saroy tartiboti" (feodal intizom) o'rtasida axloqiy va ijtimoiy ziddiyatlar ko'zga tashlanadi [2.34]. Xodzko qo'llagan "ritmik proza" uslubi turkiy dostonlardagi epik shiddatni va qahramonlik etikasini G'arb o'quvchisiga yetkazishdagi o'rni va samaradorligini nihoyatda kattadir.

A.Xodzkoning 1842-yilda nashr qilingan tarjimasi hamda "Go'ro'g'li" eposining ozarbayjon va boshqa turkiy an'anaviy variantlari (variantlilik prinsipi) o'zaro qiyoslaganda qator xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Asl matndagi syujet elementlari va obrazlar tizimining ingliz tilidagi tarjimadagi o'zgarishlari, tushib qolgan yoki qo'shilgan epizodlarni ko'rish mumkin [3.45]. Bu orqali tarjimonning turkiy doston tabiatini G'arb kitobxoniga moslashtirish (adaptatsiya) jarayonidagi transformatsiyalarni tipologik jihatdan tizimlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Matnni tushunish va talqin qilish amaliyoti sifatida germenevtik yondashuvdan (matnni talqin qilish uning chuqur ma'nosini tushunishga qaratilgan usul) foydalanilamiz. Xodzko tarjimasida "ritmik proza" (rhythmic prose) shaklidagi lirik parchalar va dialoglar ko'zga tashlanadi. Tarjimonning so'z tanlash mahorati, qahramonlarning ichki kechinmalari va xarakter xususiyatlarini ingliz tili vositasida mahurat bilan ochib berilgan. Biz tahlil jarayonida matn ostidagi yashirin ma'nolar, xususan, Go'ro'g'li va Bolibek o'rtasidagi ziddiyatning lisoniy ifodasini sezishimiz mumkin.

Tarjimani til va madaniyat bog'liqligini o'rganuvchi lingvokulturologik aspekt (til va ma'daniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish)da ham o'rganish mumkin. Bunda G'arb ritsarlik madaniyatiga xos bo'lgan "Knight" (ritsar), "Chivalry" (ritsarlik odobi) kabi

[5.56] tushunchalar turkiy epik tafakkurdagi “Alp”, “Bek”, “Mardlik” va “Futuvvat” kabi fundamental terminlar bilan qiyosiy o‘rganiladi. Ushbu metod yordamida bir madaniyatga xos tushunchaning boshqa bir madaniyat (G‘arb) qoliplariga qanday “o‘zgartirilgani”(transfer) va bunda milliy koloritning qaysi qismlari saqlanib qolinganini aniqlashimiz mumkin [6.77].

A.Xodzko talqinida Go‘ro‘g‘li va Bolibek shunchaki ikki pahlavon emas, balki ikki xil ijtimoiy qutb vakillari sifatida gavdalanadi. Bolibek – rasmiy davlat tizimi, saroy ierarxiyasi va vassal sadoqatining yorqin vakili. U o‘z harakatlarida yuqori hokimiyat (pashsha yoki sulton) oldidagi burchiga tayanadi. Go‘ro‘g‘li esa aksincha hech qanday rasmiy ierarxiyaga bo‘ysunmaydigan, o‘z irodasi va mardlik asosida bilan yashovchi “tog‘lar qiroli” sifatida tasvirlanadi.

Xodzko Go‘ro‘g‘lining Chamlibeldagi hayotini tasvirlashda ingliz kitobxoniga tanish bo‘lgan “mustaqil beklik” modelidan foydalanadi, bu esa qahramonning “Alp”lik tabiatini – shaxsiy erk va jamoaviy rahbarlik uyg‘unligini ochib beradi.

Jang sahnasidagi o‘zaro muloqot va raqibga bo‘lgan munosabatda G‘arbning “**ritsarlik odobi**” (Chivalric code) va Sharqning “**javonmardlik**” tamoyillari bir nuqtada birlashadi [8.80]. Xodzko Bolibek va Go‘ro‘g‘li o‘rtasidagi duelni tasvirlashda ritsarlikka xos bo‘lgan xushmuomalalik (courtesy) va o‘zaro hurmat elementlarini kiritadi. Qahramonlar jangga kirishishdan oldin bir-birlarining nasl-nasabi va mardligini e‘tirof etadilar. Tarjimon turkiy dostonlardagi “kurash tushish” an‘anasini inglizcha “knightly combat” tushunchasi bilan boyitadi, natijada sharqona mardlik tamoyillari G‘arb etikasi qoliplarida universal qahramonlik namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Xodzko Bolibekni shunchaki mag‘lub bo‘lishi kerak bo‘lgan “yovuz dushman” qiyofasida emas, balki “munosib raqib” (noble adversary) sifatida chizadi. Bolibek o‘z prinsiplariga ega, mard va olijanob jangchi. Uning mag‘lubiyati – shaxsiy kuchsizligi emas, balki Go‘ro‘g‘li timsolidagi “tabiiy erkinlik” ning “sun‘iy saroy tartiboti” dan ustunligidir. Xodzkoning ushbu yondashuvi dostonning badiiyligini oshirib, uni bir tomonlama qahramonlik tasviridan murakkab ijtimoiy-falsafiy dramaga aylantiradi [9.140]. Aynan mana shu “munosib raqib” obrazi orqali G‘arb kitobxonida turkiy xalqlarning harbiy etikasi va insoniy qadriyatlariga nisbatan yuksak hurmat uyg‘otilgan.

Aleksandr Xodzko tomonidan amalga oshirilgan 1842-yilgi nashr shunchaki bir tildan ikkinchi tilga qilingan lug‘aviy tarjima (literal translation) emas, balki murakkab saviyali tarjima mahsulidir.

A.Xodzko turkiy dostonlardagi “Bek” ierarxiyasini ingliz o‘quvchisiga tushuntirishda G‘arbiy Yevropa feodalizmiga xos terminlardan foydalangan bo‘lsa-da, u tushunchaning ichki ruhini saqlab qola olgan [9.145]. Bolibek obrazida namoyon bo‘ladigan sadoqat va burch tuyg‘usi orqali tarjimon Sharqning harbiy-ma‘muriy tizimini G‘arb ritsarlik madaniyati bilan qiyosiy muloqotga kirishtiradi. Bu jarayonda dostonning

milliy koloritiga xos bo'lgan "alp" mardlik va "bek" g'urur ingliz madaniy kontekstiga begona element sifatida emas, balki insoniyat uchun umumiy bo'lgan qahramonlik etikasi sifatida ko'chirilgan [5.45].

Xodzko qo'llagan "ritmik proza" uslubi dostonning janriy tabiatini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynagan. Munozara jarayonida aniqlandiki, bu uslub aynan Go'ro'g'li va Bolibek o'rtasidagi jangning keskin vaziyatlarini, qahramonlarning bir-biriga aytgan "mardonavor xitoblari"ni (dialoglarini) ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. She'riyat va nasr o'rtasidagi bu o'ziga xos ritm turkiy baxshilarning ijro uslubiga (so'z va soz uyg'unligiga) hamohang bo'lib, ingliz tilida epik shiddatni va qahramonlarning ichki g'ururini qayta yaratish imkonini bergan. Bu esa G'arb kitobxoniga dostonning nafaqat mazmunini, balki uning musiqiy va emotsional ruhini ham his qilish imkonini berdi.

XIX asr G'arb adabiy tanqidida Go'ro'g'li obrazining "Sharqona Robin Gud" sifatida qabul qilinishi Xodzko yaratgan badiiy talqinning natijasidir [6.140]. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, Go'ro'g'li Robin Gudga qaraganda murakkabroq ijtimoiy-psixologik qiyofaga ega. Robin Gud asosan ijtimoiy adolat uchun kurashuvchi bo'lsa, Xodzko talqinidagi Go'ro'g'li (ayniqsa, Bolibek bilan jangda) shaxsiy erkinlik, epik shon-sharaf va "Alp"lik shonini hamma narsadan ustun qo'yuvchi tarixiy qahramondir [9.47]. Bolibek bilan to'qnashuvda u nafaqat g'olib, balki o'zining "tog'lar erkinligi" falsafasini saroy tartibotidan ustunligini isbotlovchi ma'naviy yetakchi sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkazilgan tadqiqot Aleksandr Xodzkoning 1842-yilgi "Specimens of the Popular Poetry of Persia" to'plamidagi "Go'ro'g'li va Bolibek" dostonini tahlil qilish orqali shuni qayd qilish mumkinki, A. Xodzko turkiy eposni G'arb kitobxoniga shunchaki Sharqiy ekzotika namunasi sifatida emas, balki Yevropaning klassik ritsarlik romanlari (Chivalric romances) bilan tenglasha oladigan yuksak epik asar darajasida taqdim etgan. Muallif turkiy xalqlarning qadimiy "Alp" va "Bek" konsepsiyalarini G'arbning mardlik va ritsarlik kodeksi bilan mahoratli tarzda uyg'unlashtira olgan. Go'ro'g'li timsolidagi "tog'lar erkinligi" – bu shaxsiy erk va ijtimoiy adolatning oliy ifodasi bo'lsa, Bolibek timsolidagi "saroy tartiboti" – tizimli davlatchilik va sadoqat ramzidir. Ularning to'qnashuvi shunchaki jismoniy jang emas, balki ikki xil ijtimoiy-axloqiy tizimning o'zaro muloqoti va bir-birini e'tirof etishidir.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Xodzko talqinidagi Go'ro'g'li obrazi nafaqat "Sharqona Robin Gud", balki o'zida qadimgi turkiy mifologik ildizlarni va o'rta asrlar ritsarlik madaniyatini birlashtirgan universal epik qahramondir. Bolibekning "munosib raqib" sifatida tasvirlanishi esa G'arb sharqshunosligida turkiy epos personajlariga nisbatan bir tomonlama (stereotipik) qarashlarni murakkab va serqirra xarakterlar sifatida tanitgan.

Dostonlardagi mifologik qatlamlarning (masalan, G'irotning kelib chiqishi, qahramonning suv bilan bog'liq initsiyatsiyasi) inglizcha tarjimadagi transformatsiyasi masalasi haligacha ilmiy o'rganilmagan. Xodzko matnlarining keyingi davr Yevropa

adabiyoti, xususan, romanchilik va epik janrlar rivojiga ko'rsatgan bilvosita ta'sirini lingvofolkloristik jihatdan tadqiq etish zarurati mavjudligini alohida qayd qilib o'tish joiz.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, A. Xodzkoning sa'y-harakatlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga kirgan "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari bugun ham o'zining ijtimoiy-axloqiy va estetik qimmatini bilan qiyosiy adabiyotshunoslik uchun tuganmas manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chodzko A. Specimens of the Popular Poetry of Persia, as found in the adventures and improvisations of Kurroglou, the bandit-minstrel of Northern Persia; and in the songs of the people inhabiting the shores of the Caspian Sea. London, 1842. Printed for the Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland.
2. Boratav P.N. Köroğlu Destanı. – Ankara: Bilgi Yayınevi, 1967.
3. Hatto A.T. Traditions of Heroic and Epic Poetry. – London: Modern Humanities Research Association, 1980.
4. Zirmunsky V.M. The Epic of Alpamysh and the Return of the Odyssean Hero. Archiv Orientalní, 1960.
5. Reichl K. Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, and Poetic Structure. – New York: Garland Publishing, 1992.
6. Chadwick N.K., Zhirmunsky V.M. Oral Epics of Central Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
7. Mirzayev T. Alpomysh dostonining o'zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968.
8. Goffman E. Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior. – New York: Pantheon Books, 1967.
9. Bascom W. (1954). Four Functions of Folklore. – The Journal of American Folklore, 1954.

Ajiniyaz atidagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934